



IQBOL MIRZO SHE'RIYATIDA VATAN OBRAZINING SHAXSIY HAYOT FALSAFASI BILAN BOG'LANISHI.

Tajiyeva Gulasal Xusan qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18053764>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-dekabr 2025 yil

Ma'qullandi: 22-dekabr 2025 yil

Nashr qilindi: 25-dekabr 2025 yil

KEYWORDS

Vatan obrazi, Iqbol Mirzo,
shaxsiy hayot falsafasi, poetik
talqin, badiiy vositalar, milliy
ramz..

ABSTRACT

Ushbu maqolada Iqbol Mirzo she'riyatida Vatan obrazining shaxsiy hayot falsafasi bilan bog'lanishi masalasi yoritiladi. Shoir ijodida Vatan obrazi oilaviy xotiralar, adabiy an'ana, milliy ramzlar va tabiat manzaralari orqali poetik talqin qilinadi. Tadqiqot davomida epitet, metafora, tashbeh, personifikatsiya kabi badiiy vositalarning Vatan obrazini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada Iqbol Mirzo she'riyatida Vatan insonning ruhiy mavjudligi va hayot mazmuni sifatida talqin etilishi ilmiy asosda ochib beriladi.

O'zbek adabiyotida Vatan obrazi eng qadim davrlardan beri yuksak badiiy va ma'naviy qiymatga ega bo'lgan mavzulardan biridir. Bu obraz turli davr shoirlari ijodida o'zbek xalqi ruhiyati, tarixi, orzu-intilishlari bilan bog'langan holda turlicha talqin qilib kelinadi. Qadimgi turkiy yodgorliklardan boshlab Alisher Navoiy, Bobur, Furqat, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Hlima Xudoyberdiyeva, Usmon Azim kabi ko'plab ijodkorlar Vatan timsolini o'ziga xos poetik falsafa bilan boyitganlar.

Alisher Navoiy asarlarida Vatan ko'proq axloqiy yuksalish, komil inson bo'lish yo'lida turgan ma'naviy makon sifatida nomoyon bo'lsa, g'azallarida Vatanni sog'inch, yoshlik xotiralar va sadoqat timsoli sifatida tasvirlaydi. XX asr adabiyotida Abdulla Oripov Vatanni muqaddaslik, vijdon va e'tiqod markazi sifatida yoritgan bo'lsa, Erkin Vohidov uchun Vatan-tarixiy xotira, milliy g'urur va ma'naviy ildizlarning ramzidir. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida Vatan-ona, ayollik va mehr timsoliga ko'chadi.

Mazkur ijodkorlar poetikasida vatan naqadar muqaddas nechog'lik shaxsiy tuyg'ular va hayot falsafasi bilan bog'langanini kuzatish mumkin. Shunday an'anaga tayanib zamonaviy o'zbek she'riyatida Vatan mavzusi yanada yangi, intim va ruhiy talqinlar bilan boyidi. Ana shu jarayonda Iqbol Mirzo ijodida alohida ajralib turadi. Shoir Vatan obrazini keng tarixiy-falsafiy qarashlar orqali emas, aksincha, shaxsiy xotiralar, oila iliqligi, bolalik esdaliklari, ajdodlar ruhi bilan uyg'unlashtiradi. Ushbu fikrlarning yorqin misoli sifatida shoirning "Yurt qo'shig'i" she'ring parchasi orqali ko'rib chiqamiz.

Bobomning bayti bor yaproqlaringda

Momomning tafti bor chorbog'laringda

Onamni eslatar rayhoning yurtim

Dadamning hidi bor tuproqlaringda

Shoir Vatanni oddiy bir geografik hudud emas, muqaddas makon sifatida tasvirlaydi. Daraxt yaproqlarida "bayt"ning mavjudligi ajdodlarning donoligi va o'g'itlari avloddan-avlodga o'tib kelayotganini bildiradi. Chorbog'dagi issiqlik momo mehrining ramziga aylanib, yurt tabiatini tiriklik manbai sifatida ko'rsatadi. Rayhonning hidi-ona mehrining timsoli. Bu yurtning o'ziga xos hidlarini inson xotiralarini uyg'otishini anglatadi. Tuproqda "ota hidi"ning borligi Vatanning oila ildizlari bilan bog'langanini hamda kindik qoni tomgan ota zamin obrazi orqali ifodalaydi. Badiiy tasvir vositalari: Epitetlar-obrazni chiroyli, ta'sirli sifatlash. Bobo bayti, momo tafti, ona rayhoni, ota hidi. Personifikatsiya-tabiat "xotirani saqllovchi"

tirik bir mavjudot. Yaproq-baytni eslatadi, rayhon-onani eslatadi, tuproq-ota hidini olib yuradi. Shoir shaxsiy xotira bilan umumxalq tuyg'usini uyg'unlashtiradi: boboning bayti-ilm va hikmat, momoning tafti-mehr va baraka, onani eslatuvchi rayhon-poklik, otaning hidi singgan tuproq-sobitlik va kuch kabi g'oyalar Vatan sevgisini yanada teranlashtiradi.

So'lim Xonoboddan Kiyiksoygacha,
Qutlug' ostonadan suyuq oygacha,
Chiroqlar yulduzdek porlar har kecha,
Mudom o't gurlasin o'choqlaringda!
Tog'laring bag'rida limmo-lim tilsim,
Ming yilkim, mo'ysafid Shohimardon jim,
Sangardak qo'shig'in sharxlay olar kim?!
Tillo qumlar o'ynar buloqlaringda.

She'rda shoir ana endi Vatan obrazini aniq geografik nuqtalar orqali quradi:

Gorizantal kenglikda (Xonoboddan-Kiyiksoygacha), vertikal ruhiylikda (ostonadan-oygacha), qamrab oladi. Shu orqali shoir yurti nafaqat yer yuzidagi hudud, balki osmon bilan tutashgan muqaddas makon sifatida talqin etadi. O'choq va o't ramzi-hayot falsafasi bilan uzviy bog'liq. O'choq-oila, davomiylik, avlodlar bardavomligi ramzi. O'tning "gurlashi" esa: tinchlik, baraka, hayot uzluksizligini anglatadi. Shohimardon tog'lari shunchaki manzara emas, balki ajdodlar xotirasi va tarixiy sukunatni o'zida mujassam etgan obrazga aylanadi. "Sangardak qo'shig'in sharhlay olar kim?!", bu ritorik savol orqali vatanning go'zalligini so'z bilan to'liq ifodalab bo'lmasligini, shoirning hayrat va hayajonini bildiradi. Bu usul bilan shoir badiiy so'ning chegarasini tan oladi, bu esa falsafiy teranlikni kuchaytiradi. Qumlarning "o'ynashi" orqali tabiatning tirikligi, doimiy harakat va yangilanishni bildiradib, Vatan abadiy hayot manbai sifatida talqin qilinadi.

Mavlono Lutfiylar ulfatdir menga,
She'r lutfi eng totli suhbatdir menga,
Ulug'lar ismi ham quvvatdir menga,
Tug'yonim-o'ynoqi toychoqlaringda
Bir kuychi o'g'lingman, bayotim o'zing,
Tilimning ostida navvotim o'zing,
Bag'rim, jonim o'zing, hayotim o'zing,
Dil torim qalampirmunchoqlaringda.
Qizg'aldoqlarinda ko'milib yotdim,
Billur shabnamlarda cho'milib yotdim,
Dunyoni unutdim, o'zni yo'qotdim,
Men ham vatan bo'ldim quchoqlaringda!

Movlono Lutfiy nomining tilga olinishi bejiz emas, chunki mumtoz she'riyat, so'zning ruhiy qudrati, adabiy meros timsolidir. Keyingi satrlarda Vatanni novvot (shirinlik) timsollari bilan shirin so'z, ya'ni ona tili, milliy ruh ramzidir. "Bag'rim, jonim, hayotim" kabi so'zlari takror va parallelizm orqali kuchli hissiy urg'u berib, Vatan obrazi shaxsiy hayot falsafasining markaziga ko'tariladi. Qalampirmuchoq- milliy bezak, ko'z tegishidan asrovchi vosita. Shoir qizg'aldoq, shabnamlarda ko'milib, cho'milib tabiat bilan birlashib, go'zallik, poklikka urg'u beradi. O'zligini yo'qotib inson Vatanning bir bo'lagiga aylanishi bu she'rning falsafiy cho'qqisidir.

Xulosa qilib aytganda, Iqbol Mirzo she'riyati zamonaviy o'zbek adabiyotida Vatan obrazining intim, samimiy va falsafiy talqinini yaratib uni shaxsiy hayot mazmuni bilan uyg'unlashtirgan holda yangi poetik bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iqbol Mirzo. Saylanma. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2018.
2. Iqbol Mirzo. Yurt qo'shig'i. She'rlar to'plami. — Toshkent: Sharq, 2015.
3. Navoiy Alisher. Xamsa. — Toshkent: Fan, 1987.
4. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. — Toshkent: Yulduzcha, 1990.
5. Lutfiy. Devon. — Toshkent: Fan, 1979.
6. Oripov A. Milliy ruh va Vatan talqini. — Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
7. Vohidov E. She'r va shaxs. — Toshkent: O'qituvchi, 1981.
8. Xudoyberdiyeva H. She'riyat va qalb. — Toshkent: Sharq, 1998.
9. www.ziyouz.com — O'zbek adabiyoti va shoirlar ijodi bo'yicha elektron manba.
10. www.kutubxona.uz — Milliy elektron kutubxona.

INNOVATIVE
ACADEMY